

YORONGUL (GERANIUM SANGUINEUM L) NING URUG'IDAN KO'PAYTIRISH MEXANIZMLARI.

b.f.n.,dots

Xalmuratov.M.A

II kurs magistri

Raupova.G.N

Anatatsiya: *Maqolada yorongulning tarqalishi , biologic xususiyatlari va urug'ining morfolgik tuzlishi haqida ma'lumot berilgan. Yorongul o'simligining urug'idan ko'paytirishda ma'lum bir mezanizmlarga asoslangan holda xulosalar berilgan.*

Kirish

Dunyoda biologik xilma-xillikni, saqlash, o'simliklar olamini muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish global muammolardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda butun yer yuzida bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham dolzarb muammolardan biri – bioxilma-xillikni asrash, uning kamayib borishi bilan bog'liq muammolarni va mavjud holatni barqaror rivojlanish asosi sifatida saqlab qolish hisoblanadi. Har xil antropogen omillarning tasirida o'simlik turlari areallarining qisqarib borishi ba'zi bir tur o'simliklarning butunlay yo'qolishiga yoki kamayishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, o'simliklar dunyosini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish hamda chet o'lkalardan keltirilgan turlar hisobiga boyitish dolzarb muammodir. O'simliklar dunyosi go'zalligi uchun , insonlarga estetik zavq berishi , dori-darmon sifatida qadimdan ma'lum. Gulchilik va landshaft dizayni uzoq yillik tarix ega jarayon. Misr fir'avnlari Bobil, Rim imperatorlarisaroylari, ingliz va Fransiya qirollari o'zlarining sroylarida ko'kalamzorlashtirishda dekorativ va ekzotik o'simliklardan keng foydalangan. Asrlar davomida ulug'langan bu mashhur kompozitsiyalar dunyoning yeti mo'jizasiidan biri bo'lgan Bobil osma bog'lari dekoativ san'at sifatida saqlanib kelinmoqda. Hozirgi kunda dunyoda issiqxona gullari ishlab chiqarishning 70% gacha G'arbiy Evropada to'plangan. Mutaxassislar mahsulot birligiga energiya, mehnat va pulni maksimal darajada tejagan holda ishlab chiqarishni intensivlashtirish yo'llarini izlamoqda. Xalq tabobatida dorivor o'simliklardan har xil damlamalar va malhamlar sifatida foydalanib kelishgan, keyinchalik fan va texnikaning asta-sekin rivojlanishi bilan olimlarning ularga bo'lgan qiziqishi ortib bordi. Ular mukammal o'rganilib, rasmiy tibbiyotda keng qo'llanila boshlandi. Bu o'rinda tarkibi kaltsiy taninlar, ant –tosiyanni birikmalar , glyukoza va fruktoza, flavonoidlar, saponinlar, katexinlarga boy , manzarali o'simlik va xalq tabobatida qo'llaniladigan yoronguldoshlar oilasiga mansub Geranium sanguineum L turi alohida ahamiyatga ega .

ASOSIY QISM

Yorongul (Geranium sanguineum L), umumiy nomlari quyidagilar qonli turna[1] yoki qonli yorongul deb ataladi . Yoronguldoshlar (Geraniaceae) oilasiga

mansub, chidamli gulli ko'p yillik o'simlik turidir.[1] Yorongul Yoronguldoshlar (Geraniceae) oilasi Yorongulilar qabilasi (Geraniales) ga mansub oilalardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu oilaga 9 turkumga mansub 750 ga yaqin tur kiradi . O'rta Osiyoda 59 gayaqin tur shu jumladan O'zbekistonda 18 turi keng tarqalgan . [2.3.4.5] Yorongul turkumi (Geranium jinsiL) Yoronguldoshlar oilasining (Geraniaceae) yirik avlodlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu turkum vakillari Antarktidadan tashqari yer yuzining barcha qit'alarda keng tarqalgan .Turkum vakillarining asosiy qismi yerning Shimoliy yarim sharda ekstratropik mintaqalarida tarqalgan.

Yorongul (geranium sanguineum L)o'simligining gullari to'kilgan dan so'ng meva hosil qiladi shuning uchun ham tur nomi yunoncha giranos ("géranos") dan so'zidan olingan bo'lib , mevasining tashqi ko'rinishiga ko'rinishiga ishora qilib, turna degan ma'noni anglatadi.

Mevani pishib yetilgach uzunchoq turna tumshug'iga o'xshash shaklda bo'ladi, ularning har birida 5 tagacha urug'lar bo'ladi odatda urug'larni hammasi to'liq rivojlanmagan bo'lib bitta meva ichidagi 5 ta urug'dan uch tasi yaxshi rivojlanmagan bo'ladi, uning rivojlanmagani tashqi tuzilishidan ko'rinib turadi.to'liq rivojlangan urug'lar qobiq dan bo'rtib chiqadi meva hosil qilgandan 7-10 –kundan so'ng urug'lar to'liq pishib yetiladi.

Urug'i tashqi tomondan o'rtacha qalinlikdagi parda bilan qoplangan bo'lib bu parda yuqori qismi popukli bo'lib pastki qismi spiralsimon bo'lib urug'ni o'rab oladi, urug'i pishib yetilgandan so'ng o'simlikdan portlash yo'li bilan meva kapsulasining ichidan chiqib ketadi shu tariqa urug'lar turli yo'nalishlarga tarqab ketadi. Urug'ni mevadan portlab chiqishiga popuklar va popuklarning pastki qismining spiralsimon tuzilishi yordam beradi.

Yorongul (geranium sanguineumL) ning urug'l shu usulda tarqalishi orqali bu usul bilan ko'pchilik ko'paytira olmaydi va bu naslning yo'qolib ketishiga sabab bo'lishi mumkin, biroq yorongul poyasidan ko'paytirish buni saqlab qolishga yordam beradi . Urug'ni o'rab olgan pardoning o'rta qismida kichik teshikcha bo'lib shu yerdan urug'ni chiqarib olamiz.Bu o'simlik urug'i har xil tuproqqa moslashmaganligi sababli urug'idan tabiiy yo'l bilan ko'paymaydi buni asosan inson tomonidan ma'lum qonun qoidalar asosida parvarishlab o'stiriladi , to'liq pishib yetilgan urug'lar quyidagi xususiyatga ega bo'ladi :

- urug' rangi to'q jigarrang bo'ladi;
- to'liq rivojlangan urug'larning shaklichozinchoq tuzilishga ega bo'lib yon tomondan mayda chuqurliklar bo'ladi;
- urug'ning qobig'l juda qattiq bo'ladi.



Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Yorongul (*geranium sanguineum* L) o'simligining urug'ining uzunligi 4 mm, og'irligi esa 0.1 g tashkil etadi.

O'simlikni urug'idan ko'paytirishda bir qancha mexanizmlar asosida amalga oshadi. Buning uchun dastlab urug'lar skarifikatsiya qilinadi ya'ni; yorongul (*geranium sanguineum* L) o'simligining urug'ini qobig'l juda qattiq bo'lganligi bois quyidagi ishlar amalga oshiriladi;

1. urug'lar maxsus silliqlash qog'ozlarda ishqalanadi;
2. uch qismidan scalpel yoki pichoq bilan bir oz urug' po'sti olib tashlanadi
3. suvga 1 kun mobaynida ivitib qo'yiladi;
4. maxsus gumusli tuproqni dastlab biroz namlab so'ng ekiladi, ustini tuproq bilan yopgach ham suv sepiladi.

Ekilgan urug'larga yorug'lik va issiqlik tushib turishi kerak. Yuqoridagi ketma ketlikni amalga oshirgandan so'ng urug' ekilgan idishni selofan paket bilan o'rab parnik hosil qilinadi, chunki urug'larni unishi uchun issiqlik muhimahamiatga ega. Yuqorida aytib o'tilganidek urug'lar ishqalanib suvga solib qo'yilmasa urug' unib chiqmasligi mumkin. Shu sababli shu usuldan foydalaniladi.

Shunday qilib yorongul asosan gulchilik sohasida keng miqyosda qo'llaniladi. Bu o'simlik tabiatga chiroy baxsh etadi va parfumeriya sanoatida ham keng qo'llaniladi.

Bu o'simlikni urug'idan ko'paytirish uchun ma'lum mexanizmlar qo'llanilsagina o'simlik urug'i unib chiqadi va uni o'stirish mumkin.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ávila M.B, Gayosso de Lúcio JA, Mendoza NV, González CV, De la O Arciniega M. va Vargas GA *Geranium* turlari antioksidantlar sifatida. Uz.: Oksidlanish stressi va surunkali I. degenerativ kasalliklar - antioksidantlar uchunol. 2013 yil. 113 rub

2. O'zbekiston florasida *geranium* L. turkumining turlari: tarqalishi, kimyoviy tarkibi va biologik faolligi O'zbekiston florasida Geraniaceae oilasining turlari: tarqalishi, kimyoviy tarkibi va biologik faolligi Jamalova D.N. Po'latov S.O. Qurboniyozova G.T. Jabborov A.M. Tajiyeva F.A. 05.10.2019 413 № 10 (64)

27. Авезова, Д. (2022). статья Стихи Есенина были его судьбой. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 22(22).

28. Shaxnoza, A. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN. *Journal of Modern Educational Achievements*, 3, 33-38.

29. Артикова, Ш. М. (2023). Специфика Функционирования Плеоназмов В Русском И Английском Языках. *Miasto Przyszłości*, 33, 250-254.

30. Artikova, S. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF APPEAL IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH INTERNATIONAL LANGUAGES. *Conferencea*, 144-145.

31. Artikova, S. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH DIFFERENCE INTERNATION LANGUAGES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 3, 55-59.

32. Artikova, S. M. (2020). About the importance of teaching foreign languages in the republic of Uzbekistan. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 5(85), 79-83.

33. Artikova, S. M. (2020). О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. *Theoretical & Applied Science*, (5), 79-83.

34. Artikova, S. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF APPEAL IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN. *Conferencea*, 142-143.

35. Artikova, S. (2022). FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 3, 60-63.

36. Артикова, Ш. М., & Муминова, М. А. (2011). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ. *УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА*, 55.